

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ichki audit xizmatining**  
**2025-yil 9 oylik faoliyati natijalari bo'yicha**  
**HISOBOTI**

**1. Umumiy ma'lumotlar.**

*O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligida Ichki audit xizmati alohida tuzilma shaklida Vazirga hisobdor etib belgilangan. Bo'lim emas 1 dona bosh mutaxassis shaklida ochilgan. Vazirlik va uning tizim tashkilotlari jami 296 tani tashkil etadi va 4 ta Ichki audit xodimlari ishlab kelmoqda. (Markaziy apparatda 1 ta, Transport universitetida 1 ta va Avtomobil yo'llari qo'mitasida 2 ta). Ushbu ishlovchi xodimlarning barchasi malakaviy sertifikatlangan.*

**2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.**

*2025 yil sentyabr holatiga O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi ichki audit xizmatining yillik rejasiga asosan vazirlikning Markaziy apparati, Toshkent viloyat va Sirdaryo viloyat transport boshqarmalari moliyaviy faoliyati o'rganilganda byudjet mablag'lari hisobidan 42,4 mln so'm, Sirdaryo viloyat transport boshqarmasida 6,4 mln so'm moddiy rag'batlantirish mablag'lari ortiqcha berilganligi aniqlangan. Sentyabr oyida o'rganish o'tkazilishi belgilangan Navoiy viloyat transport boshqarmasida o'rganish olib borilmoqda.*

*Hisobot davrida rejadan tashqari profilaktik tadbirlar o'tkazilishi natijasida chet el xizmat safari bo'yicha 32 mln so'm miqdorida pul mablag'lari ortiqcha berilganligi aniqlangan va ushbu xato kamchilikni bartaraf etish bo'yicha ishlar olib borilgan. Vazirlikning 9 oylik faoliyati yakuni bo'yicha 9,4 mlrd so'm mablag' maqbullashtirish uchun vazirga ma'lumot kiritilgan.*

**3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.**

*Sentyabr oyida o'rganish o'tkazilishi belgilangan Navoiy viloyat transport boshqarmasida o'rganish olib borilmoqda.*

**4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.**

*Ichki audit tadbirlarida berilgan taklif va tavsiyalar berilgan va hozirda amalga oshirish choralari ko'rilgan.*

**5. Hisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali kelib tushgan xavf tahlillari.**

*Hisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali kelib tushgan 2188 ta xavf tahlillari kelib tushgan bo'lib, shundan 726 ta xavf tahlillari o'z tasdig'ini topgan.*

**6. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.**

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi Ichki auditi tomonidan 9 ta takliflar berilgan bo'lib vazirlik ichki auditi tomonidan barcha takliflar bo'yicha ishlar olib borilgan.*

7. Davlat organi va tashkiloti tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

*Nazorat ishlari amalga oshirilmagan.*

8. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralalar (taklif va tavsiyalar)

*Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar mavjud emas.*

9. Davlat organi va tashkiloti faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

*Taklif va tavsiyalar mavjud emas.*

10. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

*Taklif va tavsiyalar mavjud emas.*

11. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash natijalari.

*Ichki audit xizmati xodimining faoliyat samaradorligini baholash natijalari 90 foizni tashkil etmoqda.*

N. Chölg'yev  
Ichki audit xizmati rahbari  
(FIO)

- [imzo]  
(imzo)

20.10.2025y.  
(kun, oy, yil)

*Izoh. Hisobot ichki audit xizmati tomonidan har bir qism bo'yicha bayon etiladi. Agar ichki audit xizmati faoliyatida birorta qismi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, mazkur qismda "tegishli ma'lumotlar mavjud emas" yozuvi bilan ko'rsatiladi. Hisobotning hajmi bo'yicha chegara mavjud emas.*

*Hisobotga tegishli jadvallar ilova qilinadi.*

*Shuningdek, ichki audit xizmati tomonidan hisobotga davlat organi va tashkiloti ichki audit faoliyatiga oid qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi mumkin.*